



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

2023 yil “10” yanvar

№ 6

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
31-dekabrda 734-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida**

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrda “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qarori ijrosini tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrda “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qarorining (keyingi o‘rinlarda – Qaror) 2 - va 3-bandlariga muvofiq davlat xaridlari elektron tizimi operatori (keyingi o‘rinlarda - operator) faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi asosiy talablar:

qonunchilik hujjatlarida belgilanadigan talablarga javob beradigan davlat xaridlarining elektron tizimining mavjudligi hamda u operatorga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lishi;

bazaviy hisoblash miqdorining 25 ming baravaridan kam bo‘lmagan va to‘liq shakllantirilgan ustav kapitalga ega bo‘lishi;

davlat xaridlarning elektron tizimida tuzilgan bitimlarning bajarilishini ta’minlashda faqat Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborot tizimida ochilgan shaxsiy g‘azna hisob varaqalari orqali amalga oshiriladigan kliring va hisob-kitob tizimiga ega bo‘lishi;

elektron tijorat va axborot texnologiyalari sohasida kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan, kamida ikki nafar malakali xodim hamda Call-markaz mavjud bo‘lishi;

operatorlar tomonidan davlat xaridlari subyektlarining mablag‘laridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish, shu jumladan, tijorat banklarida depozitga joylashtirish taqiqlanganligi;

operatorlarning davlat xaridlari elektron tizimi davlat xaridlari sohasidagi davlat nazorati organlarining axborot tizimlariga belgilangan tartibda integratsiya qilinishi;